

## Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



2019 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2019 yil yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1904,2 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **29,7% ga o'sishni** ta'minladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar soni, ish haqi fondi va o'rtacha oylik ish haqi.

(2019 yil yanvar-mart, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
<b>Viloyat bo'yicha - jami</b>	<b>148774</b>	<b>8402,2</b>	<b>1904,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	16479	1220,9	2971,9
Qurilish	5219	205,8	1314,7
Savdo	2734	122,1	1489,0
Tashish va saqlash	12841	1092,0	2834,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	449	21,5	1593,5
Axborot va aloqa	1248	73,4	1960,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	3386	328,2	3231,2
Ta'lim	55543	2810,7	1686,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25389	1166,6	1531,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2488	106,3	1423,8
Boshqa faoliyat turlari	22998	1254,7	1675,7

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o`rtacha oylik ish haqi ulushi jamiga nisbatan Bank, sug`urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (**169,7%**), sanoatda (**140,3 %**), tashish va saqlashda (**148,9%**), axborotlashtirish va aloqada (**103,0%**), qurilishda (**69,0 %**), savdoda (**78,2 %**), yashash va ovqatlanishda (**83,7%**), ta`limda (**88,6%**), sogliqni saqlash va Ijtimoiy xizmatlarda (**80,4%**) va boshqa yo`nalishlarda (**86,7%**) sohalari hissasiga to`g`ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2018 yil yanvar-dekabr, viloyatdagi o`rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




2019 yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)

## Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Buxoro viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Kogon shahrida **2743,9** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **144,1** %), Qorovulbozor tumanida **2278,0** ming so'mni (**119,6** %) va Romitan tumanida **1971,3** ming so'mni (**103,5** %) tashkil etgan bo'lsa, aksincha Vobkent tumanida **1536,6** ming so'mni (**80,7** %), Jondor tumanida **1539,4** ming so'mni (**80,8** %) va Kogon tumanida **1564,5** ming so'mni (**82,2** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.


### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2019 yil yanvar-mart viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Buxoro viloyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik  
nominal hisoblangan ish haqi  
(ming so'mda)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart	O'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1468,2</b>	<b>1904,2</b>	<b>129,7</b>
Buxoro sh.	1471,7	1962,2	133,3
Kogon sh.	1970,6	2743,9	139,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1419,1	1682,0	118,5
Buxoro	1376,1	1699,8	123,5
Vobkent	1166,4	1536,6	131,7
G'ijduvon	1227,1	1688,0	137,6
Kogon	1321,5	1564,5	118,4
Qorako'l	1152,9	1589,2	137,8
Qorovulbozor	2238,5	2278,0	101,8
Peshku	1155,8	1 598,8	138,3
Romitan	1599,6	1 971,3	123,2
Jondor	1198,0	1 539,4	128,5
Shofirkon	1211,7	1 617,1	133,5

**Ma'lumot uchun:** Ozbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajaragan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2019 yil mart oyida **577200,0** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Viloyat statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: L.Jiyanov  
(71) 230--83-16, 223-83-37